

**INGLIZ TILINI O'QITISHDA KOMMUNIKATIV MASHQLAR  
ORQALI PRAGMATIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH  
(TEXNIKA YO'NALISHI TALABALARI MISOLIDA)**

**Qarshiyeva Bog'dagul Faxriddinovna**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.**

**Termiz davlat universiteti**

<https://orcid.org/0009-0006-5922-5118>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada texnika yo'nalishi talabalariga ingliz tilini o'qitishda kommunikativ mashqlar orqali pragmatik kompetensiyani algoritmik rivojlantirishga, keyingi har bir daraja esa oldingi ko'rsatkichlarning sifat o'zgarishlari bilan tavsiflanishiga e'tibor berilgan. Shuningdek, maqolada Ingliz tili o'quv fani modullarini kompetentli yondashuv asosida o'rganilganidan keyin talabalarda bilim va kompetentligi shakllanganlik darajasida ijobiy o'zgarishlar yuz berganini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** Motivatsion-maqсадli, kommunikativ mashqlar, lingvo-madaniy, kommunikativ-faoliyatli, ijtimoiy-shaxsiy, 4 pog'onali metodi

**РАЗВИТИЕ ПРАГМАТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ЧЕРЕЗ  
КОММУНИКАТИВНЫЕ УПРАЖНЕНИЯ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ  
АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА (НА ПРИМЕРЕ СТУДЕНТОВ  
ИНЖЕНЕРНЫХ ВУЗОВ)**

**Каршиева Богдагул Фахриддиновна**

и.о. доцент Термезского государственного университета,

доктор философии в педагогике, (PhD)

**Аннотация:** В данной статье основное внимание уделяется алгоритмическому развитию прагматической компетентности посредством коммуникативных упражнений при обучении английскому языку студентов

технических специальностей, причем каждый последующий уровень характеризуется качественными изменениями предыдущих показателей. Также в статье показано, что после изучения модулей предмета английского языка на основе ком-сохраняющего подхода произошли положительные изменения в уровне знаний и ком-сохраняемости студентов.

**Ключевые слова:** Мотивационно-целевые, коммуникативные упражнения, лингвокультурологический, коммуникативно-деятельный, социально-личностный, 4-х бальный метод.

## **DEVELOPMENT OF PRAGMATIC COMPETENCE THROUGH COMMUNICATIVE EXERCISES IN TEACHING ENGLISH (IN THE EXAMPLE OF ENGINEERING STUDENTS)**

**Karshieva Bogdagul Faxriddinovna**

Associate Professor, Termez State University,

Doctor of Philosophy in Education (PhD)

**Abstract:** This article focuses on the algorithmic development of pragmatic competence through communicative exercises in teaching English to technical students, and each subsequent level is characterized by qualitative changes of previous performances. Also, the article shows that after studying the modules of the English language subject based on the com-retentive approach, positive changes occurred in the level of knowledge and com-retentiveness of the students.

**Key words:** Motivational-targeted, communicative exercises, linguistic-cultural, communicative-active, social-personal, 4-point method

**Kirish.** Ta'lim jarayonida talabalarning Xorijiy tillarni bilish kompetentligi komponentlarining rivojlanganlik darajasini tashxislash Oliy ta'lim muassasalaridagi texnika yo'nalishida tayyorlanayotgan bo'lajak muxandislarining ingliz tilini bilish kompetentligini rivojlantirish jarayonining bir butunligini

tasavvur qilishda va pragmatik kompetensiyasini rivojlantirishda kommunikativ mashqlarga murojaat qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Pragmatik kompetensiyani shakllantirish jarayoni bo‘lajak muhandislarda etika va deontologiyaning asosi bo‘lgan maxsus “antropotsentrik” fikrlash, bag‘rikenglik, tinglash qobiliyati kabi muhim kasbiy fazilatlarni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Xorijiy tildan ta‘lim berish jarayonida talabalarni xorijiy tillarni bilish kompetentligining komponentlari o‘zgarishida ijobiy dinamika mavjud bo‘lsa, samarali hisoblanadi. Pragmatik komponentlardagi o‘zgarishlar dinamikasining miqdoriy ko‘rsatkichlarini aniqlash uchun xorijiy tillarni bilish kompetentlikni rivojlanganlik ko‘rsatkichlarini baholashni tavsiflash lozim. Pragmatik kompetensiyani rivojlantirish asosida talabalarning xorijiy tillarni bilish kompetentligini rivojlantirish metodikasini mashqlar to‘plami taqdim etilgan bo‘lib, kompetentlikni rivojlantirish samaradorligini tekshirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlari olib boriladi[3, 258].

Pedagogik jarayonni diagnostika qilishning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri talabalarda xorijiy tillarni bilish kompetentlikni rivojlanganlik ko‘rsatkichlar asosida aniqlanadigan miqdoriy xususiyatlarni aniqlashdir. Pedagogika fanida o‘rganilayotgan obyektни kuzatish va o‘lchash uchun mavjud bo‘lgan xususiyatlarini, uning bevosita tadqiqot uchun mavjud bo‘lmagan boshqa xususiyatlarini baholashga imkon beradi. Xorijiy tillarni bilish kompetentlikning baholash mezonlari sifatida tanlangan: motivatsion-maqsadli, lingvo-madaniy, kommunikativ-faoliyatli, kommunikativ, pragmatik komponentlar. Boshlang‘ich, oraliq va yakuniy nazorat davomida tajriba ishlarini o‘tkazishda mavjud ko‘rsatkichlar orqali aniqlanadi.

Ta‘lim jarayonida xorijiy tillarni bilish kompetentligini rivojlantirish darajasi fan sohasidagi rivojlanish darajasi, kasbiy madaniyat bo‘yicha o‘qitish va o‘zlashtirish darajasi tushuniladi. Chet tilini o‘qitish asosida xorijiy tillarni bilish kompetentligini rivojlantirish dolzarb bo‘lib, bizning ishimizda har bir talabanning

xorijiy tillarni bilish kompetentligini rivojlantirish darajasini ta'lim jarayonida kasbiy kompetentligini rivojlanganlik darajasi sifatida tushunish taklif etiladi[2, 114].

Talabaning xorijiy tillarni bilish kompetentligi komponentlarini rivojlantirishning tanlangan darajalari o'zaro bog'liq ravishda va algoritmik rivojlanadi, keyingi har bir daraja esa oldingi ko'rsatkichlarning sifat o'zgarishlari bilan tavsiflanadi. Ta'lim jarayonida talabalarning Xorijiy tillarni bilish kompetentligi komponentlarining rivojlanganlik darajasini tashxislash uchun 1-jadvalda keltirilgan metodikadan foydalanish taklif etiladi.

**1-jadval**

**Xorijiy tillarni bilish kompetentligini rivojlantiruvchi komponentlarni aniqlashning diagnostik vositalari va metodlari**

<b>Lingvistik kompetensiyaning komponentalari</b>	<b>Diagnostika vositalari va metodlari</b>
Motivatsion	Kirish test (kirish nazorat) Avtomatlashtirilgan test (oraliq va yakuniy nazorat),
Lingvo-madaniy	Kuzatish, topshiriqlar to'plami. Kurs loyihalari(yakuniy nazorat)
Kommunikativ, pragmatik	Esse, keys topshiriqlari

**Lingvistik kompetensiyaning komponentalarining motivatsion bo'limida** Kuzatishlar mobaynida o'rganilayotgan o'quv jarayoni uchun ayrim jihatlar ajratib olindi. Masalan, talabalarning auditoriyada ishlashi, ularning o'rganilayotgan mavzularga bo'lgan qiziqishi, muayyan vazifani bajarishda dasturiy vositalardan foydalanish ko'nikmasining oshganligi, javoblarning sifati (haqiqiyliqi, to'liqligi, mazmunlilik, amaliyotga tadbiq eta olishi va boshqalar).

Ushbu natijalar ingliz tili o'quv fani modullarini kompetentli yondashuv asosida o'rganilganidan keyin talabalarda bilim va kompetentligi shakllanganlik darajasida ijobiy o'zgarishlar yuz berganini ko'rsatadi.

Talabalarini chet tilidan o'qitish jarayonida hamda ularning bo'lajak kasbiy faoliyatlarida umumkabi va ixtisoslik fanlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday bo'lsada, umumkasbiy va ixtisoslik fanlarni to'liq o'zlashtirishlari uchun ta'lim yo'nalishi nuqtai-nazaridan chet tilini bilish qanchalik muhim ahamiyat kasb etishiga e'tibor qilishmaydi. Professor-o'qituvchilar bilan o'tkazilgan suhbatlardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, chet tilidan olingan bilimlar bo'lajak mutaxassislarining kasbiy faoliyatida muhim o'rin egallaydi. Lekin, birinchi kurs talabalarining ko'pchiligida chet tili bo'yicha bilim darajasi yetarli emasligi va ulardan mustaqil foydalanish ko'nikmasi shakllanmaganligi muammolar keltirib chiqaradi. Buning uchun talabalar bilan individual ishlash, ta'lim jarayonida har bir mavzuga chet tilini qo'llash, chet tilda doir dasturiy vositalar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish orqali bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga yo'naltirish lozim.

Tajriba-sinovning dastlabki bosqichining tahlili natijalari shuni ko'rsatdiki:

- talabalarining professional ta'lim sohasiga chet tilining tadbiqu to'g'risida tasavvurga ega emas;
- xorijiy tildan talabalarining bilimi yetarli darajada emas, ya'ni mutaxassisligi nuqtai nazaridan kasbiy yo'naltirilmagan;
- ta'lim jarayonida aksariyat talabalarda tabiiy hodisa va jarayonlarga chet tilini qo'llash unchalik muhim bo'lmay, balki ular nazorat ishlarini yaxshi topshirishlari muhimdir.

Talabalarining xorijiy tillarni bilish kompetentligining rivojlanganligi uchta darajasi bo'yicha aniqlandi (2 jadval):

1. Boshlang'ich-kasbiy (xorijiy tildan bilim va ko'nikmalarga egaligi, uslubiy-didaktik vositalar va elektron lug'atlardan foydalanib, loyihalashni amalga oshirishi);

2. Tayanch-kasbiy (muammoli vaziyatlarni hal qila olishi)– talabalarning loyihalash faoliyatiga tayyorgarlik darajasi;

3. Yetakchi-kasbiy (yuqori darajadagi kasbiy faoliyat)– talabalarning ilmiy-tadqiqot kasbiy faoliyatiga tayyorgarlik darajasi.

2- jadval

**Talabalarning xorijiy tillarni bilish kompetentligining rivojlanganligi darajalari**

<b>Mezon va darajalar</b>	<b>Yuqori</b>	<b>O'rta</b>	<b>Past</b>
Motivatsion-maqсадli	-talaba muammoni aniqlaydi va shakllantiradi, o'z faoliyatini o'zi tashkil qila oladi; -ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borish uchun vosita va metodlarni tanlay oladi. -ilmiy-tadqiqot farazi, maqsadi, obykti va predmetini mustaqil aniqlay oladi; olingan natijalarni takomillashtirish maqsadida o'z faoliyatini tahlil qila oladi;	-talaba mavjud namuna va to'plangan tajribaga asoslanib topshiriq bo'yicha o'z loyihaviy-konstruktorlik faoliyatini qurish ko'nikmasini namoyish etadi; -mavjud sharoitga ko'ra o'z faoliyatini tashkil eta oladi, farazni shakllantiradi, maqsadni aniqlaydi va metodni tanlay oladi;	-talaba mavjud namuna va konstruksiyaga ko'ra topshiriqlar bo'yicha loyihalash va tadqiqotchilik faoliyatini qurishni namoyish etadi. Ammo u qo'yilgan loyihalash va tadqiqotchilik masalalarini yechish holatida emas; -talaba o'z faoliyatini

			mustaqil tahlil qila olmaydi;
Lingvo-madaniy	-kasbiy sohada xorijiy tillarni bilish bo'yicha mutaxassis; -axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib xorijiy tillarni bilish kompetentligini rivojlantirish yo'llarini biladi;	-kasbiy sohada xorijiy tillarni bilish bo'yicha mutaxassis; ko'pgina standart hayotiy vaziyatlarda muloqot qila oladi;	-kasbiy muammoli masalalar yechish chet el adabiyotlaridan foydalanish imkoniyatlariga ega;
Kommunikativ-faoliyatli	-kasbiy-amaliy sohadagi muammoli kasbiy masalalarni xorijiy adabiyotlardan foydalanib yechimini topa oladi; -murakkab mavzulardagi matnlarni yaratish usullarini biladi;	- professional talim sohasida modellashtirish va loyihalash jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga harakat qiladi;	- professional talim yo'nalishi uchun ishlatiladigan chet tilidan texnik so'zlarni biladi;
Ijtimoiy-shaxsiy	-kasbiy faoliyatda tanqidiy tahlil qilishni amalga oshiradi; -professional talim loyihaviy ishlarda o'z o'zlashtirish darajasini baholaydi;	-loyiha natijalarini chet tilida tahlil qila oladi;	- professional talim yo'nalishida qo'llaniladigan atamalarni biladi;

Tajriba-sinov davomida tajriba guruhlarida quyidagi ta'lim metodlaridan foydalanildi:

Amaliy mashg'ulotlarda talabalarni xorijiy tillarni bilish kompetentligini rivojlantirishda loyihalash, muammoli ta'lim metodi, ko'rgazmali ta'lim metodi, reproduktiv, o'qitishning 4 pog'onali metodi, bahs-munozara metodlaridan foydalanildi.

**Xulosa.** Ta'lim muassasalarida o'tkazilgan tajriba-sinov jarayonida ingliz tili fanidan har bir dars mashg'uloti mavzusining malaka talablariga mosligi, o'quv materialining talabalar tomonidan o'zlashtirilishidagi sifat ko'rsatkichlar, mavzularining tadrijiyligi, o'zlashtirilishi qiyin bo'lgan mavzular tadqiqotchilar, respondent o'qituvchilar tomonidan aniqlab borildi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karshiyeva, B. (2023). Solving complex communicative-knowledge tasks based on integrated bilingual education in English. *Interpretation and Researches*, 1(18). <https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/1538>

2. Karshieva Bogdagul Faxriddinovna, . (2023). Theoretical views of teaching English to engineering students. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 5(12), 113–116. <https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume05Issue12-15>

3. Karshieva B.F. (2023). A component of professional communicative competence in English is professional engineering knowledge. *Journal of Universal Science Research*, 1(12), 257–261. Retrieved from <https://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/3290>



4. Karshieva B.F.(2023). The current state of teaching English to technical students, methodological approaches.“Xorijiy tillarni o‘qitishda innovatsion yondashuvlar” mavzusida Xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya. Vol. 4 No. № 4.1 (2023). 135-138.